

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISROILOV QOBULJON TOSHEMIROVICH

**BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORGARLIK
SIFATINI OSHIRISHNING AKMEOLOGIK YONDASHUV METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Isroilov Qobuljon Toshtemirovich

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning akmeologik yondashuv metodikasi.....3

Исроилов Кобулжон Тоштемирович

Методика акмеологического подхода к повышению качества профессиональной подготовки будущие учителя истории.....23

Isroilov Kobuljon Toshtemirovich

Methodology of the acmeological approach to improving the quality of professional training of future history teachers.....46

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список о опубликованных работ

List of published works..... 51

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISROILOV QOBULJON TOSHEMIROVICH

**BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORGARLIK
SIFATINI OSHIRISHNING AKMEOLOGIK YONDASHUV METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4117 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) hamda «ZiyoNyet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ernazarova Gulnora Oblaqulovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Raxmonova Muqaddas Qahramonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Karaxonova Lobarxon Musaxonovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “___” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy.). Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; ye-mail: chdpu_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-o‘y. Tel.: (99870) 712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2024 yil “___” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

U.N.Xodjamqulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., dotsent

F.T.Rajabov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, p.f.d., dotsent

V.B. Fayziyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi Butunjahon forumida e'tirof etilgan 2030-yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida ta'lim "Taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" turi sifatida, o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ijtimoiy-jamiyatdagi o'zgaruvchan talablarga moslashtirish orqali ta'lim sohasidagi rivojlanish tendentsiyalarini akmeologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligi, mantiqiy-mustaqillik, faol-ijodiy fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish va individual kasbiy shakllantirish darajasini oshirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Dunyo hamjamiyatining mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, kasbiy kreativ qobiliyatga ega bo'lgan, kasbiy akmeshaxs, faol mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan xalqaro jamiyatda munosib o'rin egallash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim dargohlarida akmeologik yondashuv asosida shaxsni shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini rivojlantirish, kasbiy yetuklikka erishish jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xalqaro miqyosda fan va texnika rivoji, ilg'or ishlab chiqarish tajribalari, amaliyotga jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgan jamiyat va tabiatda yuz berayotgan o'zgarishlar, mutaxassislar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi. Bunda intensiv kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish, o'qitishda ta'limning pedagogik-psixologik-akmeologik vazifalari integratsiyasini ta'minlash, o'quv-bilish faoliyatida akmeologik kasbiy yo'naltirish usullarini ishlab chiqish ahamiyatli hisoblanadi. Akmeologik yondashuv asosida ta'lim muhitini takomillashtirishga bo'lgan bunday yondashuv, akmeshaxs mutaxassisni shakllantirish, kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish, ilmiy-metodik ta'minotni yaratish, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga imkon berishi bilan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yangicha yondashuv va usullarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. ... Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"¹. Bu esa, tarixni o'qitish jarayonida akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish, uning didaktik modeli va metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

¹ Mirziyov Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir // "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 20 yanvar. – 13-son (7793).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son “O‘zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli bo‘lgan meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan G.H.Tillayeva akmeologik yondashuvning muhimligini qayd etgan holda, axloqan pok, intellektual yetuk, yuksak professional kadr - akmeshaxs jamiyatni ijtimoiy - iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy kuchi, jahon standartlariga javob beradigan professional yetuk kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri, deb ko‘rsatgan. B.Ma‘murov bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishni, A.Sh.Saliyev yoshlarning intiluvchanligini aniqlashda akmeogrammaning ahamiyatini, G.O.Ernazarova kasbiy ta’lim jarayoniga akmeologik yondashuvni tadbiq etish masalasini ilmiy tadqiq etganlar.

Tarixga oid pedagogik ilmiy izlanishlar, jumladan A.A.Akmalov matematika ta’limida tarixiy materiallarni tanlash mezonlari va foydalanish metodikasi, A.F.Ismailov akademik litseylarda tarix fanini o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish, S.T.Maxkamov tarix ta’limida kurslararo uzviylikni ta’minlashning didaktik asoslari, R.A.Mulladjanova Turkiston milliy-ozodlik harakatlari tarixini o‘qitishning metodik asoslari, B.N.Nurillayev umumiy fizika praktikumlarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining eksperimental ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik asoslari, A.A.Xalikov oliy ta’lim muassalarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish, B.X.Xodjayev umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish hamda R.B.Yarmatov bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini oshirish va rivojlantirish texnikalarini o‘rgangan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan B.G.Ananyev, A.A.Derkach, Yu.V.Sinyagina, Ye.V.Seleznyova, A.S.Glinskiy,

A.A. Derkach, L.G.Gribenyuk, V.O.Ramonova, M.M.Shexterlar ta'limda akmeologik yondashuv muammosini ilmiy tadqiq etganlar.

Akmeologik yondashuvda shaxs rivojlanishi, kasbiy shakllanish masalalarini A.A.Derkach, Ye.V.Seleznyova, M.G.Sinyakova, E.E.Simanyuk, S.L.Fomenko, N.V.Kuzmina, N.A.Ribnikov va boshqalar ilmiy tadqiq etganlar.

Akmeologik yondashuv bo'yicha: A.M.Derkach, o'rta kasb-hunar ta'limidagi akmeologik yondashuv: muammolar va istiqbollar masalasi, Romanova Vera Olegovna, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchi-psixologlarning kasbiy dunyoqarashini shakllantirish, A.M.Leontyev, akmeologik yondashuv bo'lg'usi hayot faoliyati xavfsizligi o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim omili sifatida", Ye.K.Markova, M.M.Shexter, zamonaviy pedagogik kasbiy ta'limda akmeologiyaning roli va muammolarini ilmiy tadqiq etganlar.

Xorijlik olimlardan Boele de Raad, Gregory K.Patton shaxsni rivojlantirishning akmeologik-psixologik muammolari, N.Wang akmeologiyada shaxsni rivojlanishtirish, K.Thomas ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish, H.H.Zullo, Drapeau Patti ta'lim oluvchilarda kasbiy ijodkorlikni shakllantirish, Albert Bandura, Richard Walters ta'lim jarayonida o'smir va o'spirinlar shaxsini rivojlantirish muammolari, J.K.Khanna akmeologiyani tatbiq etishda ilmiy izlanishga yo'naltirilgan ta'lim masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan.

Biroq tarixni o'qitish jarayonida akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish tuzilmasi va uning komponentlarini aniqlashtirish, didaktik model va metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, kasbiy kreativ qobiliyatni shakllantirishning integrativ mazmunini innovatsion akmetexnologiyalar, ilmiy-ijodiy muhit va innovatsion faoliyat uyg'unligini ta'minlashda akmeologik yondashuvga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida akmeologik yondashuvni qo'llashning metodik xususiyatlarini aniqlashtirish;

tarixni o'qitish jarayonida akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqish;

tarixni o'qitish jarayonida akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning didaktik modelini ishlab chiqish;

tarixni o'qitish jarayonida talabalarda kasbiy yo'nalganlikni akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti akmeologik yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti va Jizzax davlat pedagogika universitetining bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridan 551 nafar talaba jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini pedagogik oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qituvchi shaxsini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); maxsus psixologik-pedagogik metodikalar; pedagogik eksperiment; natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida akmeologik yondashuvni qo'llashning metodik xususiyatlari talabalarda kasbiy fazilatlarni shakllantirishning konstruktiv va destruktiv, psixologik-pedagogik, evristik va uslubiy jihatlarini ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy pedagogik rivojlanish traektoriyasiga zamonaviy ta'lim paradigmalarga muvofiq kasbiy moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

tarix fanini o'qitishning integrativ mazmuni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini kasbiy motivatsiya, kompetentlik va yo'nalganlikni shakllantirishga ilmiy-ijodiy muhit va innovatsion faoliyat uyg'unligini epistemologik va kognitiv tamoyillarga muvofiq ta'minlash orqali integratsiyalash asosida ochib berilgan;

bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik modeli tarix o'qitish metodikasini akmetexnologiyalar vositasida rivojlantirishda fanning pragmatik, empirik va deterministik omillarini bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy o'sish bilan bog'liq usullar tizimiga ta'lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari orqali muvofiqlashtirish asosida ishlab chiqilgan;

talabaning akmeogrammasi va individual rivojlanish traektoriyasini akmetexnologik tamoyillar asosida rivojlantirishning amaliy mexanizmlari bo'lajak tarix o'qituvchilari pedagogik tayyorgarligi sifatini oshirishda ularning kasbiy rivojlanish vektorini tarix fanlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitishga vertikal yo'naltirish texnologiyasini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Pedagogik kompetentlik” o'quv qo'llanma nashr ettirilgan;

oliy ta'lim muassasalari uchun “Bo'lajak tarix o'qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish” nomli mobil ilova yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi № DGU 24263) va ta'limda foydalanish yo'lga qo'yilgan.

“Pedagogik akmeologiya” maxsus kurs dasturi ishlab chiqilgan va aprotatsiyadan o‘tkazilgan.

Talabalarda kasbiy kreativ qobiliyatni shakllantirishga doir “Adaptiv didaktika” to‘garagining mashg‘ulotlar dasturi va metodik ta‘minoti ishlab chiqilgan;

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning didaktik modeli va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlariga tayanilganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Akmeologiya”, “Akmeologik yondashuv”, “Akmetexnologiya”, “Kasbiy yo‘nalganlik”, “Akmeogramma”, “Akmeologik yo‘nalganlik”, “Akme” kabi tushunchalarining mazmuni va mohiyatining ochib berilganligi, akmeologik yondashuvning zamonaviy talaba shaxsini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari, tarix fanini o‘qitishda akmeologik yondashuvni joriy etishning metodik tuzilmasi, oliy pedagogik ta‘limda zamonaviy talaba shaxsini kasbiy tayyorlashning ilmiy-metodik tizimi, tarixni o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini rivojlantirishning tarkibiy asoslari, funksiyalari va tavsifining aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarixni o‘qitish jarayonida talabalarda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning didaktik modeli ishlab chiqilganligi, metodik shart-sharoitlarining takomillashtirilganligi, tarixni o‘qitish jarayonida akmetexnologiyalarni qo‘llashning metodik usullari, tarixni o‘qitish jarayonida talabalarda kasbiy yo‘nalganlikni akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning metodik (akmeologik yo‘nalgan darslari ishlanmalari, talabaning akmeogrammasi va individual rivojlanish traektoriyasi, akmetexnologiya metodlari asosida texnologik xarita) shart-sharoitlari va akmeologik yondashuv usullaridan foydalanish yo‘llari, talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifati, shaxsiy rivojlanishi, kreativligini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va diagnostik vositalarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifatini akmeologik yondashuv asosida takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

talabalarda kasbiy fazilatlarni shakllantirishning konstruktiv va destruktiv, psixologik-pedagogik, evristik va uslubiy jihatlarini ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy pedagogik rivojlanish traektoriyasiga zamonaviy ta‘lim paradigmalariga muvofiq kasbiy moslashtirish asosida aniqlashtirilgan talabalarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida akmeologik yondashuvni qo‘llashning metodik

xususiyatlariga oid ilmiy-metodik tavsiyalar “Pedagogik kompetentlik” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi buyrug‘iga asosan berilgan 68-206-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga qo‘yilgan zamonaviy talablarga mos ravishda akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish muammosini tadqiq qilish zarurligini nazariy asoslashga erishilgan;

kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini kasbiy motivatsiya, kompetentlik va yo‘nalganlikni shakllantirishga ilmiy-ijodiy muhit va innovatsion faoliyat uyg‘unligini epistemologik va kognitiv tamoyillarga muvofiq ta‘minlash orqali integratsiyalash asosida ochib berilgan tarix fanini o‘qitishning integrativ mazmuniga oid takliflardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” nomli ko‘rsatuv ssenariyasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023 yil 31 maydagi 01-31-854-son ma‘lumotnomasi). Natijada, akmeologik yondashuv asosida oliy ta‘limda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

tarix o‘qitish metodikasini akmetexnologiyalar vositasida rivojlantirishda fanning pragmatic, empiric va deterministic omillarini bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy o‘shish bilan bog‘liq usullar tizimiga ta‘lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari orqali muvofiqlashtirish asosida ishlab chiqilgan bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik modeli Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 13 iyundagi 02-07-2273/04-raqamli dalolatnomasi). Natijada, oliy ta‘lim muassasalarida akmeologik yondashuvni joriy etish texnologiyalari, o‘quv-bilish faoliyatini akmeologik kasbiy yo‘naltirish metod, vosita va usullari takomillashtirilgan;

bo‘lajak tarix o‘qituvchilari pedagogik tayyorgarligi sifatini oshirishda ularning kasbiy rivojlanish vektorini tarix fanlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitishga vertikal yo‘naltirish texnologiyasini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan talabning akmeogrammasi va individual rivojlanish traektoriyasini akmetexnologik tamoyillar asosida rivojlantirishning amaliy mexanizmlariga oid tavsiyalar va tadqiqot ishi natijalari T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining AI-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” nomli amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023 yil 10 apreldagi 174-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada, oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini akmeologik yondashuv asosida takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.

Dissertatsiya ishining asosiy mazmuni muallifning jami 21 nomdagi ilmiy-uslubiy ishlari, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola (8 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan) va elektron mobil ilova (1ta davlat guvohnoma)larida o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning ilmiy tadqiqot ishi bajarilgan oliy ta'lim muassasasining rejasi bilan bog'liqligi, maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati hamda tadqiqot natijalarining joriylanishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak tarix o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishda akmeologik yondashuv texnologiyasi muammosini tadqiq qilishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarix o'qituvchilari kasbiy faoliyatga tayyorlash muammo sifatida, pedagogik kategoriya sifatida akmeologiyaning mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda akmeologik yondashuv texnologiyasini qo'llashning pedagogik-psixologik omillari yoritilgan. Insonning yetuklik darajasi va yetuklikning eng yuqori balandligi–akmesi-insonning ko'p o'lchovli holati bo'lib uning mehnatkash, fuqaro, oila a'zosi, ota-ona singari hayot faoliyatining turli jabhalarini qamrab oladi.

Talabanning fizik, psixik va shaxsiy yetukligi, uning aqli, sezgi, irodasi, intellekti bilan bog'liq bo'lib subyekt sifatida qobiliyatlar va yuqoridagi ko'rsatkichlar bilan umumiy aloqador. Lekin ularning barchasi bir vaqtning o'zida insonning ijodiy faoliyatida individ, shaxs va subyekt sifatida “akme” darajasiga chiqish vaqti doimiy ravishda to'g'ri kelmaydi, ba'zi hollarda nisbiy mos kelishi mumkin.

Akmeologiya shaxsning rivojlanishida yetuklikka olib keluvchi muhim pog'onalarni yoritadi. U yetuklikning individual ko'rinishi turli odamlarda turlicha bo'lishi, turli ta'sir etuvchi omillarni aniqlaydi.

Insonda xarakter va individli, shaxsiy va subyektiv o'ziga xoslik darajasi turli xil bo'lib, u yetuklikka erishishda turli bosqichlardan turlicha o'tadi. Bu uning sog'ligiga, shaxsiy faoliyatda turli xildagi faoliyatlar bilan shug'ullanishi kabilarga bog'liq.

Har bir insonda o'ziga xos yetuklik va o'zining “akme” siga yetish vaqti, balandligi mavjud bo'lib, uning qancha vaqt davom etishi ham har bir odamda har

xil bo'lishi mumkin. Yetuklikka erishish pog'anasi qanchalik baland, ko'p qirrali, boy, ijtimoiy ulug' va novatorlik original natijaga ega bo'lishi, uning hayot yo'liga, ya'ni u o'z "akme"siga yetib kelgunga qadar bosib o'tgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik kabi yetuklikka ko'tarilishda tushgan holatlariga bog'liq.

Akmeologiya – bu inson faoliyatining turli sohalarida cho'qqilarga erishishi qonunlari, mexanizmlari va usullarini o'rganadigan nisbatan yangi fan.

Akmeologik va pedagogik fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida ijodiy qobiliyatga bag'ishlangan tadqiqot ishlari mavjud bo'lib, bular orasida o'qitishda tabaqalashtirish, integratsiyalash hamda o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish masalalarini birinchi o'rinda turishini ko'rish mumkin.


"Akme" – bu cho'qqi. Akmeologiya – bu kasbiy faoliyatda cho'qqilarni zabt etish yo'lidagi ta'limning asosiy qarama-qarshiligini hal qilish qonuniyatlari haqidagi fan"dir. Qadimgi yunonlar insonning "akme"sini, ya'ni uning cho'qqisini yetuk yillar (qirqaqa yaqin) deb atashgan.

Akmeologik yondashuv – bu shaxsiy-kasbiy o'sish bilan bog'liq muammolar va ularni hal qilish uchun tamoyillar, texnikalar va usullar tizimi hisoblanib, ular metodologik yondashuvlar, o'rganilayotgan obyektga nisbatan pozitsiyaga, shuningdek, akmeologik tadqiqot usullarini qo'llash va amaliy muammolarni hal qilishga asoslangan. Buning uchun, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirishga erishishni rivojlantirish, akmeologik yondashuv asosida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish tizimini tashkil etish, o'quv-bilish faoliyatida akmeologik kasbiy yo'naltirish usullarini ishlab chiqish, tarixni o'qitishda ta'limning pedagogik-psixologik-akmeologik vazifalari integratsiyasini ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonida akmeshaxs kadrni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak tarix o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning akmeologik yondashuv metodikasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida tarixni o'qitish jarayoniga akmeologik yondashuvni joriy etish mazmuni, talabalarda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning didaktik modeli, shakl, metod va vositalari yoritib berilgan.

Akmeologik yondashuvga asoslangan o'qitish jarayonini pedagogik modellashtirish qadriyatli munosabatni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida tarix ta'limi mazmunini yoritib berishi va shunga muvofiq ravishda uni amalga oshirilishini ta'minlashi kerak. Aynan aksiologik komponent Davlat ta'lim standarti va dasturlarining tarkibiy asoslarini alohida-alohida o'rganish imkoniyatini taqdim etib, inson hayoti mazmuni, tarixning tub mohiyati, turli tarixiy davrlar, bilish jarayonlarining ahamiyatini keng ravishda ochib beradi. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga rivojlantirish mumkin (1-rasm).

Bo'lajak tarix o'qituvchilarning akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning asosiy ko'rsatkichlari aniqlandi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida akmeologik yondashuvni amalga oshirishda: talabalar shaxsini akmeologik rivojlantirish determinantini hisoblash va anglab yetish uchun zarur bo'lgan pedagoglar bilimlarini faollashtirish;



1-rasm. Oliy ta'limda akmeologik yondashuvni joriy etish modeli

talabalarga kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, ta'limda innovatsionlik, dialogiklik, kontekstlik, amaliy yo'nalishlik; akmeologik-yo'nalish tashkil etuvchi pedagoglarning ta'lim-tarbiya faoliyatidagi integrativ yondashuv; reflektiv (o'z ruhiy holati haqida o'ylash, fikr yurgizish, uni tahlil qilish) ga oid treninglarni va kasbiy-motivatsiya treninglari, vitagenli va o'yinli ta'lim metodlari qo'llanildi.

Oliy ta'lim tizimida akmeologik yondashuvni amalga oshirish bosqichlarining ketma-ketligi quyidagicha psixologik-pedagogik omillari aniqlanib, bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlashda akmeologik yondashuvni qo'llash mexanizmi va uni amalga oshirish tuzilmasi ishlab chiqildi.

Oliy ta'limda akmeologik yondashuvni joriy etish modeli va unga mos ravishda tarix fanini o'qitishda ta'limning kasbiy yo'nalganligini ta'minlash jarayoni ishlab chiqildi (1-rasm). Akmeologik yondashuv asosida ta'limni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritildi .

Oliy ta'limda akmeologik yondashuvni joriy etish modeli va unga mos ravishda tarix fanini o'qitishda ta'limning kasbiy yo'nalganligini ta'minlash jarayoni ishlab chiqildi. Akmeologik yondashuv asosida ta'limni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, "Kasbiy pedagogik akmeologiya" o'quv dasturi ishlab chiqildi va fakultativ maxsus kurs sifatida aprototsiyadan o'tkazilib unda akmeologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishni tashkil etish, talabalarda akmeyo'nalganlik hosil qilib ularning o'z "akme"sigga erishishini ta'minlash masalalari yoritildi. Talabalarda kasbiy kreativ qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan shakl, metod va vositalar tizimlashtirilib o'qitildi.

Akmeologik tamoyillarga tayangan holda, tanlab olingan tajriba-sinov guruhlar talabalari uchun individual rivojlanish dasturi ishlab chiqildi. Unda bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy yo'nalganlik, kasbiy faoliyatga oid ishlarni mustaqil amalga oshirish va ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari hamda shaxsiy sifatning mavjud darajalari pedagogik-psixologik jihatdan o'rganildi, har bir talabaning yuqoridagi omillar bo'yicha istiqbol rejalari belgilandi.

Akmeologik yondashuv talabaning individual kasbiy mahorat marralariga erishuvida uning kasbiy rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Biz bo'lajak tarix o'qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash, ya'ni oliy ta'limda akmeologik yondashuvni joriy etish modelini taklif etdik. Mazkur model to'rtta o'zaro bog'langan komponentlardan iborat bo'ldi: maqsad, mazmun, jarayon va diagnostik natijaviy maqsad komponentida bo'lajak tarix o'qituvchisining akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash, shaxsning akmeologik yo'nalganligiga erishish nazarda tutiladi.

Mazmun komponenti vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlar va funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponent bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyat jarayoni va tarkibiga qiziqish, muvaffaqiyatga erishishga qiziqish motivatsiyasi, kasbiy faoliyatning ahamiyatlilikini his etish, o'z-o'zini rivojlantirishga harakat qilish, sifatli kasb egasi bo'lishga ehtiyoj, kasbiy ijodiy faoliyatga tayyorlik, hayotda kerakli inson bo'lish, egiluvchanlik va o'z-

o'zini refleksiyalash, kasbning, insonning qadrini tushunish, hamda refleksiyaga bo'lgan qobiliyatni nazariy jihatdan asoslaydi.

Jarayon komponenti tarix o'qitish metodikasi maxsus – kasbiy fanlari, rivojlantiruvchi kasbiy kompetensiyalar, shakllar, metodlar va vositalardan tashkil topgan. Bunda bo'lajak tarix o'qituvchisiga fundamental, umumkasbiy, ixtisoslik va maxsus fanlarni o'qitish hamda pedagogik amaliyot jarayonlarida amalga oshiriladi.

Mazkur komponent tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi ta'lim jarayonini to'liq o'zida mujassamlashtiradi, tashkiliy-akmeologik yondashuvni joriy etishga tayyorgarlik, asosiy-akmeologik yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etish, diagnostik-korreksion-akmeologik yo'nalganlikni tekshirish va unga kerakli tuzatishlar kiritish ishlari amalga oshiriladi.


Diagnostik-natijaviy komponent pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, motivatsion-qadriyatli, emotsional-hissiy, axborotli-kognitiv, reflektiv – baholash kabi mezonlar, tayyorgarlik darajalari va natijani qamrab olgan. Mazkur komponent yuqorida keltirilgan uchta komponentni to'g'ri amalga oshirilganligini tasdiqlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqilgan metodik model metodologik yondashuvlar, tamoyillar va funksiyalarni hisobga olgan holda uzviy algoritmik ketma-ketlikni saqlash natijasida ishlab chiqilgan bo'lib nafaqat texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga informatika o'qitishda, balki boshqa yo'nalishlarga ham tarixni o'qitishda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini bashoratlaydi.

Metodik model maqsaddan natijaga yo'nalgan uzluksiz tizim sifatida qaralsa bo'lajak mutaxassisni tayyorlashda amalga oshirilgan algoritmik ketma-ketlikni izchil amalga oshirilishini talab qiladi. Modeldan foydalanib bo'lajak tarix o'qituvchilarini ta'lim jarayonida akmetexnologiyalardan yuqori darajada foydalanishga tayyorlik darajasiga qarab samarali ekanligi aniqlanadi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modelning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tasdiqlaydi.

Tadqiqot ishida bo'lajak tarix o'qituvchilarining shaxsiy hamda professional sifatlaridagi kamchiliklarni aniqlanishi hamda bartaraf etilishiga imkon yaratuvchi mikroteching metodikasi, o'zlarida o'qituvchi timsolini yaratish orqali zaruriy xulosalarni chiqarishlariga erishishlari mumkin bo'lgan mikroteching darslari, munozarali akmetexnologiyaning o'yinli metodlari samarali qo'llanildi. Masalan: "Maqsadga qanday erishish mumkin... yoki 8 qadam" metodi, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ijodkorlik, kreativlikni shakllantirish bosqichlari, akmeologik yondashuv asosida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish tizimida talabalarning akmeogrammasi, akmeologik yondashuv asosida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish tizimida "Tarix" fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning pedagogik texnologiya monitoringi, 2 soatlik dars uchun akmeologik yo'nalgan interfaol dars tizimi (tarix fani misolida), "SCORE", "SWOT", "SMART" kabi interfaol metodlar, akmeologik yondashuvni qo'llashda talabalar to'garaklarida mustaqil ishlash, akmetexnologiya metodlarini qo'llash amalga oshirildi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy va psixologik xususiyatlarini rivojlantirish bo‘yicha reflektiv (o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, fikr yurgizish, uni tahlil qilish) ga oid treninglarni va kasbiy-motivatsiya treninglari, vitagenli va o‘yinli ta‘lim metodlari, jumladan “Itifot”, “Men bu hayotda qanchalik baxtliman”, “Professionallik shiori”, “O‘qituvchining men – obrazi”, “Mening kuchli tomonlarim”, “Karyerangizni chizing”, “Mening imkoniyatlarim va cheklovlarim”, “Men muammolarni hal qila olaman”, “Mening zaxiralарim”, “Qarsaklar”, “Mening ijobiy xususiyatlarim” kabi akmetexnologiya metodlari qo‘llanildi.



2-rasm. Talabaniing akmeogrammasi

Talaba akmeogrammasi ishlab chiqildi va qo‘llanildi, akmeologik yondashuv asosida kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish tizimida “Tarix” fanini o‘qitishni AKTdan foydalangan holda o‘qitishning pedagogik texnologiya monitoringi, akmeologik yo‘nalgan interfaol dars tizimi (2 soatlik dars uchun tarix fani misolida) ishlab chiqildi, “SCORE” , “Mikroteching” kabi metodlar “tarix o‘qitish metodikasi” ta‘lim yo‘nalishi guruhlarida qo‘llanildi, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy motivatsiya va qiziqtirish metodlaridan biri bo‘lgan, zamonaviy “SMART”, “SWOT” metodlarini tarix o‘quv predmetini o‘qitishda qo‘llanilish metodikasi ishlab chiqildi.

“Shaxsni kasbiy rivojlantirish bosqichlari”, kasbiy rivojlanish muhitida shaxsning harakatini belgilaydigan asosiy omillarini aniqlash amalga oshirildi (2-rasm).

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik sifatini akmeologik yondashuv asosida rivojlanganligini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi (1-jadval).

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining motivatsion - qadriyatli, emotsional - hissiy, axborotli - kognitiv, pedagogik jarayon faoliyatiga kasbiy tayyorgarlik darajalari:

Reproduktiv (past) - talabalarining akmeologik va pedagogik texnologiyalaridan foydalanib ta‘lim jarayonini qisman amalga oshirishi;

Izlanishli (o'rta) - muammoli vaziyatlarni hal qila olishi, talabalarning akmeologik va pedagogik texnologiyalaridan foydalana olishi;

Kreativ (yuqori darajadagi kasbiy faoliyat) - talabalarning akmeologik va pedagogik texnologiyalari vositasida ta'lim berishga yuqori darajada tayyorgarligi.

Ta'limning zamonaviy tarkibi xilma-xil bo'lib, beriladigan axborot hajmi aniq tuzilishga ega bo'lishi, talaba uni o'zlashtirishi va kundalik faoliyatda qo'llay olishi kerak. Bunga mos holda "Bo'lajak tarix o'qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash" mavzusida elektron mobil ilova yaratildi va amalda qo'llanildi (3-rasm).

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni rivojlanganlik ko'rsatkichlari

1-jadval

Mezonlar	Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni rivojlanganlik ko'rsatkichlari
Motivatsion-qadriyatli	<ul style="list-style-type: none"> – kasbiy-amaliy sohadagi muammoli kasbiy masalalarni mustaqil yechish, modellashtirishga va loyihalashga qiziqadi; – tarix fanidan mahoratli o'qituvchi bo'lish, fanni o'qitish ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga qiziqadi, kasbiy qadriyatlarni ulug'laydi;
Emotsional-hissiy	<ul style="list-style-type: none"> – kasbiy faoliyat motivlariga ega, – tarixiy va kasbiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat shakllangan – Tarixni o'qitish metodikasi, kasb imkoniyatlari va mustaqil rivojlantirish yo'llarini biladi. – kasbni egallashga talab va ehtiyojlarning yuqori darajasiga ega – hissiy rivojlanganlik
Kognitiv	<ul style="list-style-type: none"> – darsini ilmiylik, tarixiylik, metodologik, ko'rsatmalilik, talabalarni bilish imkoniyati va psixologik xususiyatlari, uzviylik va uzliksizlik, tarixni zamon va makon kontekstida bog'lashi; – tarix fanlaridagi muhim ma'lumotlarni biladi; – tarixni o'qitishda ishlatiladigan pedagogik texnologiyalarni biladi; – kasbiy sohani modellashtirish va loyihalash usullarini biladi; – kasbiy muammoli masalalar yechish uchun pedagogik texnologiyalarning instrumental imkoniyatlariga ega
